

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**



(Handwritten signature in blue ink)

10-noyabr 2023-yil

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi bo‘yicha
tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihoni

D A S T U R I

Toshkent – 2023

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi (2023-yil 10-noyabrdagi 4-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar:

f.f.d., professor Zulxumor Xolmanova

f.f.d. professor v.b. Munavvar Qurbonova

f.f.f.d. (PhD), katta o‘qituvchi Manzura Shamsiyeva

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmonlari mazmunidan kelib chiqqan holda til masalalari tadqiqini tubdan yangilash, ona tilini milliy qadriyat sifatida targ‘ib etish tizimini takomillashtirish, o‘zbek tilining nazariy va amaliy muammolarini hal qiladigan yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, filologiya sohasida yuqori darajadagi ilmiy salohiyatni shakllantirish millat taraqqiyoti uchun dolzarbdir. Ushbu dastur oliy ta‘lim muassasalarida 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi asosidagi 5A120102 – Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitiladigan tilshunoslik fanlari o‘quv mazmuniga asoslangan holda tuzildi.

Fan va ta‘lim integratsiyasi natijasida Respublika Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlashning sifatini oshirish, oliy ta‘limdan keyingi faoliyatni davom ettirish, tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

10.00.11 – Tilshunoslik nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi uchun tuzilgan dasturda “Tilshunoslik nazariyasi”, “O‘zbek tili tarixi”, “Psixolingvistika”, “Lingvokulturologiya”, “Nazariy tilshunoslik masalalari” kabi fanlar doirasidagi masalalar o‘z ifodasini topgan.

ASOSIY QISM

Tilning ijtimoiy vazifalari. Tilning jamiyatdagi o‘rni. Til va jamiyat munosabati. Tilning jamiyatdagi ko‘rinishlari.

Til va tafakkur munosabati. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o‘zaro munosabati. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishi. Tildagi so‘zlar, so‘z birikmalari va jummalarning tafakkur mahsuli ekanligi. Til qurilishi qonunlari va tafakkur qonunlari (birliklari).

Til – tafakkur – nutq munosabati. Til va nutqiy faoliyat. Nutq faoliyati, og‘zaki va yozma nutq. Lisoniy va nutqiy birliklar. Til birliklarining alohida tizim sifatida o‘zaro mutanosibliigi.

Lisoniy paradigma va lisoniy munosabatlarning asosiy turlari. Lisoniy tasnif asoslari. Til birliklari o‘rtasidagi paradigmatic munosabatlar. Til birliklari o‘rtasidagi iyerarxik munosabatlar. Til birliklari aranjirovkasi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi. Tillarning o‘zaro ta‘siri va rivojlanishi. Sinxronik va diaxronik o‘zgarishlar. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik – tildagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni o‘rganuvchi soha sifatida. Qardosh tillar

(slavyan, german, roman tillari; turkiy tillar)dagi tarixiy fonetik o'zgarishlar. Qiyosiy fonetikaning vazifalari.

Dunyo tillari tavsifi va tillar tasnifi. Dunyo tillari. Qadimiy tillar. O'lik tillar. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari. Til oilalari. Til guruhlar. Turkiy tillar oilasi. Qo'shimchali va qo'shimchasiz tillar. Agglyutinativ, flektiv tillar.

Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar. O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari.

Tilshunoslik maktablari. Tilga oid ta'limotlar evolyutsiyasi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Chog'ishtirma tilshunoslik. Lingvistik tipologiya.

Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi hind tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Vedalar tili. Vedalar va prakrit orasidagi farqlar. "Ashtadxyan" asari. Panini grammatikasining sof empirik va tasviriy xususiyatlari.

Qadimgi yunon tilshunosligi. Qadimgi yunon tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar bahsi. Stoiklar ta'limoti. Grammatikaning mantiqdan ajratilishi. Yunon tilshunosligining grammatik davri. Ellinizm davri til maktabi ta'limoti.

Qadimgi Rim tilshunosligi. Qadimgi Rim tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar qarashlarining davom ettirilishi. Qadimgi Rim tilshunosligi vakillarining qarashlari. "Analogiya haqida", "Lotin tili haqida", "Grammatika san'ati", "Fe'lning ma'nosi", "Grammatika san'ati haqida ta'limot" asarlarining lingvistik mohiyati.

Qadimgi Xitoy tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Xitoy leksikografiyasi. Xitoy tilshunosligida fonetik-prosodemiya hodisasining ishlab chiqilishi. Xitoy grammatikasi asoschilari.

O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta asr tilshunoslarining nazariy qarashlari. Yevropa tilshunosligi. Arab tilshunosligi. Arab leksikograflari. "Kitob ul-ayn", "Kitob ul-avomil", "Al-kitob" asarlari mohiyati.

O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanishi. Mahmud Koshg'ariy – turkiy tillar qiyosiy grammatikasining asoschisi. "Devonu lug'otit-turk"ning tillar tasnifi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni. Qomusiy olimlarning tilshunoslikka oid qarashlari. Grammatikaga doir manbalardagi lingvistik qarashlar. O'rta asr tilshunosligi va bugungi kun muammolari. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining tilshunoslik nazariyasini o'rganishdagi ahamiyati.

Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. Umumiy ratsional grammatikaning yaratilishi. "Pol-Royal" grammatikasi (K.Lanslo va A.Arno). Grammatika bilan mantiq o'rtasidagi aloqa. Slavyan tilshunosligi.

XIX va XX asr tilshunosligi. Umumiy tilshunoslik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. Komparativistika. Hind-yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganishning to'rt davri. V. fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik. Naturalizm. Psixologizm. Til sotsiologiyasi. Areal lingvistika. Strukturalizm.

Strukturalizm maktablari. "Yosh grammatiklar" maktabi. "Yosh grammatiklar" maktabining lingvistik qarashlari. Qozon lingvistik maktabi. Moskva lingvistik maktabi.

Struktur tilshunoslik. Struktur tilshunoslik asoschilari va namoyandalari. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati. Sossyur ta'limoti va strukturalizm.

Praga lingvistik maktabi. Neolingvistikaning shakllanishi. Glossematika maktabi ta'limoti. Deskriptiv lingvistikaning shakllanishi. Umumiy (universal) grammatika maktabi. F. de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" asari. Til va nutq. Sinxroniya va diaxroniya. Fonologiyaning shakllanishi. Kopengagen tilshunoslik maktabi. Me'yoriy holatlardan chekinish, uzus va nutq faoliyati (akti)ning absolyutlashtirilishi. Neolingvistika.

XXI asr jahon tilshunosligi. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. Sotsiolingvistika. Kompyuter lingvistikasi. Psixolingvistika. Neyrolingvistika. Pragmalingvistika. Kognitiv tilshunoslik. Lingvokulturologiya. Amaliy tilshunoslik. Amaliy tilshunoslik muammolari.

Psixolingvistika nutqiy faoliyat haqidagi fan.

Psixolingvistikaning obyekti va predmeti. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili. Tushunchaviy-terminologik apparati. Psixolingvistikada nutqiy faoliyat talqini. Psixolingvistika va tilshunoslik. Individ va kommunikatsiya. Psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.

Amerika psixolingvistik maktabi: bixeviorizm, neobixeviorizm.

Transformatsion-generativ grammatika maktablari. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi. Transformatsion modelning birinchi varianti, uning umumiy strukturasi va xususiyatlari. Transformatsion modelning tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solishdagi ahamiyati.

Nutq ontogenezi. Ontolingvistika. Tabiatdagi jonli mavjudotlar muloqoti. Maugli bolalar. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar. Til qobiliyati. Til bilimi va tilni qo'llash o'rtasidagi aloqa. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.

Nutqiy faoliyat va uning turlari. "Nutqiy faoliyat" tushunchasi. Nutqiy faoliyatning tuzilishi. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi. Nutqiy faoliyat turlari. Verbal va noverbal tafakkur. Nutqiy faoliyatning predmetlik (psixologik) mohiyati. Nutqiy faoliyatda til va nutq funksiyalari.

Nutq idroki (matnni tushunish). Matnni qabul qilish (matnni tushunish). Matn persepsiyasi. Nutqiy yoki jismoniy javob qaytarish. Murojaatni e'tiborga olish. Xabar-1ning xabar-2 ga mos kelmasligi. Matnni yaratish va tushunishda samaradorlik, tejamkorlik va ishonchlik tamoyillari.

Matnni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish. Matnning lingvistik mohiyatini ochishda til vositalarining o'ri. Matnning psixolingvistik tahlilida individ til va tafakkur faoliyatining o'ri. Matnning kommunikatsiya akti shakli ekanligi. "Muallif (matn tuzuvchi)", "matn" va "retsipiye" tushunchalari. Nutqni qabul qilishning uch asosiy darajasi.

Lingvokulturologiya. Til va madaniyat. So'zning milliy-madaniy xususiyatlari. Noverbal nutqning milliy-madaniy xususiyatlari. Lakunalar. Nutqiy muoamala. Bilingvizm va uning turlari. Xorijliklar nutqi. Madaniy shok. Lingvistik shok. Madaniyatlararo muloqot.

Pragmalingvistika. Semantika va pragmatika munosabati. Nutqiy akt nazariyasi. Pragmatik intensiya va nutqiy akt turlari. Pragmatik to'siq muammosi. Pragmatik mazmuni shakllantiruvchi omillar. Matnning denotativ strukturasi elementlari (propozitsiya, referentsiya, relevantlik va inferentsiya). Matnning implikatura birliklari. Pragmatik presuppozitsiya va tagma'no. Presuppozitsiya turlari. Nutqiy muloqot xulqi. Deyksis nazariyasi. Deyksisning pragmatik mohiyati va o'rganilishi. Deyksisni ifodalovchi til birliklari. Deyksis turlari. Pragmatik konnotatsiya va baho munosabati. Konnotatsiyani hosil qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik vositalar. Konnotatsiya turlari. Matn va diskurs nazariyasi. Matn tadqiqiga pragmatik yondashuv.

Kompyuter texnologiyalari va lingvistika fanlari. Fanning mutaxassis tayyorlashdagi o'ri. Kompyuter lingvistikasi fanining maqsadi tabiiy tillarning matematik modellarini, lingvistik muammolarni hal qiluvchi kompyuter dasturlari asosini, lingvistik ta'minotini yoritishdan iborat ekanligi. Lingvistikaning formal va aksiomatik modellarini tuzish va konkret tillarning matematik modellarini ishlab chiqish – kompyuter lingvistikasi fani oldida turgan asosiy vazifa sifatida.

Tilshunoslikda modellashtirish metodidan foydalanish. So'z turkumlarini formallashtirish. O'zbek tilidagi so'z yasash jarayonini modellashtirish. Analiz va sintez dasturi. Gap bo'laklarini formallashtirish. O'zbek, rus va ingliz tillaridagi asosiy gap konstruksiyalari. Grammatik aksiomalar. O'zbek tili grammatikasining aksiomatik nazariyasi. O'zbek tili grammatikasining aksiomatik modelini yaratish va rivojlantirish yo'llari. O'zbek tili grammatikasidagi teorema, simvol va formulalar.

Kompyuter lingvistikasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'ri. Kompyuter lingvistikasi va an'anaviy tilshunoslik. Yevropadagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar. AQSh, Yaponiya, Koreya, Xitoy kompyuter lingvistikasi. Rossiyadagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.

Turkologiya va o'zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.

Kompyuter lingvistikasining asosiy yo'nalishlari. Avtomatik tarjima. Avtomatik tarjima yo'nalishi tarixi. Tarjimon dasturlar. Avtomatik tarjima yo'nalishining zamonaviy holati va istiqboli. Ma'lumotlar bazasini yaratish. Kompyuter analizi va tarjima qilish algoritmi (ruscha-o'zbekcha, inglizcha-o'zbekcha). Dasturning ishlash tamoyili.

Analiz va sintez dasturi. Kompyuter analizi va xorijiy tildagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish algoritmi. Dastur algoritmi. Dasturning ishlash tamoyili.

Avtomatik tahrir yo'nalishining vujudga kelishi va uning dunyo tilshunosligidagi rivoji. Avtomatik tahrir dasturlari. Avtomatik tahrir dasturlarini yaratish tamoyillari. Matn tahriri bosqichlari: grafematik tahrir, morfologik tahrir, sintaktik tahrir bosqichi. Boris tizimi. Ingliz va rus tillaridagi avtomatik tahrir dasturlari. O'zbek tilidagi avtomatik tahrir dasturlari. Ma'lumotlar bazasini yaratish.

Qidiruv va ekspert tizimi haqida tushuncha. Informatsion qidiruv tizimlari. Informatsion qidiruv tizimlari (IQT) – kompyuter lingvistikasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida. Informatsion qidiruv tizimi bosqichlari: informatsiyani jamlash; informatsiyani klassifikatsiya qilish; hujjatning qidiruv obrazi (HQO)ni yaratish; hujjatning qidiruv obrazi va hujjatlarni saqlash; qidirish va natijani chiqarish. Gipertekst texnologiyasi.

Kompyuter leksikografiyasi. Matematik statistika. Kompyuter leksikografiyasiga oid asosiy tushuncha va terminlar. Kompyuter lug'atlari. Konkordanslar. Tezaurus lug'atlar. Tezaurus lugatlar tarkibi. Korpuslar. Korpus lingvistikasi. Milliy korpus. Mualliflik korpusi.

Til o'rgatish jarayonini avtomatlashtirish. Til o'rgatuvchi avtomatlar uchun nutqiy materiallarni tayyorlash, o'quv dasturlarini yaratish. Bilimlarni baholash dasturlarini tuzish. Til o'qitish dasturlari. Ingliz tilidagi til o'qitish dasturlari. O'zbek tilidagi til o'qitish dasturlari. Ma'lumotlar bazasini yaratish.

Kompyuter lingvistikasi fanining dolzarb masalalari. Lingvistik kompyuter dasturlarini takomillashtirish yo'llari. O'zbek kompyuter lingvistikasini rivojlantirishning asosiy tamoyillari. O'zbek tili asosidagi avtomatik tarjima, avtomatik tahrir, til o'rgatish dasturlarini yaratish zaruriyati. O'zbek tilida mavjud kompyuter lingvistikasi dasturlarini takomillashtirish. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va kompyuter lingvistikasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni.

Ilmiy nazariy adabiyotlar

3. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004.
4. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
5. Алефиренко Н.А. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М: Флинта, Наука, 2010.
6. Белянин В.П. Психолингвистика. Учебное пособие. – М.: Флинта, 2008.
7. Бушуй А.М., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007.
8. Дадабоев Ҳ. Тилшунослик назарияси ва методологияси. – Тошкент, 2004.
9. Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2009.
10. Йўлдошев И. ва б. Мутахассисликка (тилшуносликка) кириш. – Тошкент, 2018.
11. Красных, В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология // В.В. Красных. – М., 2002. – 284 с.
12. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
13. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Андижон, 2006.
14. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.
15. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
16. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқ методологияси ва методлари. – Тошкент, 2011.
17. Пўлатов А.К., Муҳамедова С. Компьютер лингвистикаси (ўқув қўлланма). – Тошкент, 2009.
18. Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2011.
19. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013.

18. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
19. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. – Тошкент, 2007.
20. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya / Darslik. – T., 2019. – 245 b.
21. Usmanova Sh. Psixolingvistika. / Darslik. – T., 2019.
22. Холманова З. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2007.
23. Холманова З., Saidaxmedova О., Nurullayeva О. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – T., 2018. – 94 b.
24. Холманова З. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2020.
25. Холманова З. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020.
26. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 176 б.
27. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.

Elektron manbalar

28. www.literature.uz
29. www.genhis.philol.ru.
30. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
31. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi yozma ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Talabgorning har bir savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Berilgan javoblarning mazmuni	Har bir savol uchun qo‘yiladigan ball
Savolga to‘liq javob berilsa; nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmasa; javoblarning mazmuni mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilsa; misollar bilan asoslansa; [ulosani to‘g‘ri shakllantirilsa; fikr erkin bayon etilsa –	86–100 ball
Savolning mohiyatini anglangan bo‘lsa, javobda mazmun yoritilsa, fikr misollar orqali dalillansa, tasavvur hosil qilingan bo‘lsa, qisqacha xulosa berilsa, fikrlarni sodda ko‘rinishda bayon etilsa –	71–85 ball
Savol mohiyatini anglangan bo‘lsa, ammo javobda savol	55–70 ball

mazmuni yoritilmasa, fikr qisqa shaklda ifodalansa, misollar bilan asoslanilmasa, xulosa to‘liq bo‘lmasa –	
Savolning ayrim qirralarigina yoritilsa yoki umuman savolga javob berilmasa, savol bo‘yicha aniq tasavvur hosil qilinmagan hollarda –	0–54 ball qo‘yiladi.

NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. Til birliklari orasidagi paradigmatic, sintagmatic va iyerarxik munosabatlar.
2. Turli sathga mansub birliklar munosabati.
3. Bir sathga va turli sathga mansub birliklar munosabatini izohlang.
4. Xitoy yozuvi yozma yodgorliklari qaysi asrlarga tegishli va ular nimalardan iborat?
5. Xitoy iyeroglifi nimani anglatadi?
6. Xitoy tilshunosligining asosiy yo‘nalishi qaysi soha bilan belgilanadi?
7. Qadimgi hind tilshunoslaridan kimlarni bilasiz, ular haqida ma’lumot bering?
8. Hindlar nechta so‘z turkumini farqlagan, ular haqida ma’lumot bering.
9. Qadimgi hindlarning eng mashhur tilshunosi kim va uning qanday asari bor?
10. Paninining “Ashtadxyan” kitobida nimalar mujassamlashgan?
11. Panini grammatikasi haqida gapiring?
12. Panini grammatikasini izohlab bergan rus olimi haqida qisqacha ma’lumot?
13. Qadimgi hind olimlarining izlanishlari haqida gapiring?
14. Hindlar tilshunoslik sohasida qanday ishlarni amalga oshirgan?
15. Qadimgi Xitoy lug‘atlari haqida ma’lumot bering?
16. Rim olimi Mark Terensiy Varronning izlanishlari haqida gapiring?
17. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida nimalar haqida fikr yuritadi?
18. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida nechta fe’lni tahlil qilib, fors tilidan farq qiluvchi eng asosiy jihatini ta’kidlaydi?
19. Alisher Navoiy tillarni, ya’ni arab, fors, turk tillarini baholab, qanday fikr bildiradi?
20. Alisher Navoiy chog‘ishtirma usulni qo‘llash orqali nimalarni maqsad qiladi va nimalarga erishadi?
21. XVII asrda Por-Royal grammatikasi qaysi doirada ulkan yutuqlarga erishdi?
22. “Umumiy va ratsional grammatika” o‘quv qo‘llanmasi va uning mualliflari haqida ma’lumot bering.
23. Por-Royal grammatikasi darsligi nega “umumiy” deb atalgan, ma’lumot bering.

24. Yunon tilshunosligi taraqqiyoti nechta davrga bo‘linadi?
25. Tilshunoslikdagi falsafiy davrning o‘ziga xos jihatlari nimada?
26. Geraklit va Demokrit tarafdorlarining so‘z va predmet munosabati masalasidagi qarashlari.
27. Tilshunoslikdagi grammatik davrning o‘ziga xos jihatlari nimadan iborat?
28. Yunon tilshunoslik maktabining jiddiy kamchiligi nimadan iborat edi?
29. Hind tilshunoslik maktabining jiddiy kamchiligi nimadan iborat edi?
30. Yunon va hind tilshunoslik maktablarining tilshunoslik tarixida tutgan o‘rni qanday?
31. Iskandariya grammatika maktabining eng yirik vakillari kimlar va ularning qanday asarlarini bilasiz?
32. Qadimgi Yunon tilshunosligida nechta so‘z turkumi ajratilgan va ular qaysilar?
33. Vedalar nima?
34. Arab tilshunosligining Kufa va Basra maktablari haqida ma’lumot.
35. Sibavayxiyning “Al Kitob” asari haqida ma’lumot.
36. Arab tilshunosligining paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi?
37. Arab tilshunosligining dastlabki markazlari haqida ma’lumot.
38. Amir bin Usmon Sibavayxiy haqida ma’lumot.
39. Arab leksikografiyasida lug‘atlar mazmunan nechta guruhga bo‘linadi?
40. Arab tilshunosligida nechta so‘z turkumi farqlanadi?
41. Nutq qanday belgilarga ega?
42. Til qanday funksiyalarni bajaradi? Nutq qanday funksiyalarni bajaradi?
43. Nutqning qanday mexanizmlari mavjud?
44. Nutqni faoliyat sifatida izohlang.
45. Nutqning sodir bo‘lishi uchun nimalar zarur?
46. Nutq qanday chizma asosida yaratiladi?
47. Nutq idrokini qanday formula yordamida tasavvur qilish mumkin?
48. Til birliklari va mantiq birliklarini izohlang?
49. Bilish nima? Bilishning qanday bosqichlari mavjud?
50. Hissiy bilish nima?
51. Mantiqiy (aqliy) bilish nima?
52. Til va tafakkur haqida ma’lumot.
53. Tilga xos qaysi kategoriyalarni bilasiz? Mantiq kategoriyalari qaysilar? Ularni izohlang.
54. Tillar klassifikatsiyasidagi tipologik va morfologik tasnif turlari haqida ma’lumot bering.
55. Sinxronik va diaxronik o‘zgarishlarni izohlang.
56. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik – tildagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni o‘rganuvchi soha sifatida.
57. Qardosh tillar (slavyan, german, roman tillari; turkiy tillar)dagi tarixiy fonetik o‘zgarishlarni misollar yordamida tushuntiring.

58. Qiyosiy fonetikaning vazifalari.
 59. Dunyo tillari tavsifi va tillar tasnifi.
 60. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari.
 61. Til oilalari. Til guruhlari. Turkiy tillar oilasi.
 62. Qo‘shimchali va qo‘shimchasiz tillar. Agglyutinativ, flektiv tillar.
- Misollar bilan yoritib bering.
63. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar.
 64. O‘rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi. Yozuvning hozirgi ko‘rinishlari.
 65. Tilshunoslik maktablari haqida ma‘lumot bering.
 66. Tilga oid ta‘limotlar evolyutsiyasi.
 67. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi.
 68. Chog‘ishtirma tilshunoslik.
 69. Lingvistik tipologiya nima?
 70. Qadimgi yunon tilshunosligida analogistlar va anomalistlar bahsi.
 71. Ellinizm davri til maktabi ta‘limoti.
 72. Qadimgi Rim tilshunosligi vakillarining qarashlari.
 73. “Analogiya haqida”, “Lotin tili haqida”, “Grammatika san’ati”, “Fe‘lning ma‘nosi”, “Grammatika san’ati haqida ta‘limot” asarlarining lingvistik mohiyati.
 74. Xitoy tilshunosligida fonetik-prosodemiya hodisasining ishlab chiqilishi.
 75. Xitoy grammatikasi asoschilari haqida ma‘lumot bering.
 76. O‘rta asr tilshunoslarining nazariy qarashlari.
 77. Yevropa tilshunosligi.
 78. Arab leksikograflari. “Kitob ul-ayn”, “Kitob ul-avomil”, “Al-kitob” asarlari mohiyati.
 79. O‘rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanishi.
 80. Mahmud Koshg‘ariy – turkiy tillar qiyosiy grammatikasining asoschisi.
 81. “Devonu lug‘otit-turk”ning tillar tasnifi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni.
 82. Qomusiy olimlarning tilshunoslikka oid qarashlari.
 83. Yevropa uyg‘onish davri tilshunosligi.
 84. Slavyan tilshunosligi.
 85. Umumiy tilshunoslik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi.
 86. Hind-yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o‘rganishning to‘rt davri.
 87. V. fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik.
 88. Tilshunoslikda naturalizm va psixologizm.
 89. Til sotsiologiyasi.
 90. Areal lingvistika.
 91. Strukturalizmning o‘ziga xos jihatlari haqida ma‘lumot bering.
 92. Strukturalizm maktablari.
 93. “Yosh grammatiklar” maktabining lingvistik qarashlari.

94. Qozon lingvistik maktabi.
95. Moskva lingvistik maktabi.
96. Struktur tilshunoslik asoschilari va namoyandalari.
97. Sossyur ta'limoti va strukturalizm.
98. Praga lingvistik maktabi.
99. Neolingvistikaning shakllanishi.
100. Glossematika maktabi ta'limoti.
101. Deskriptiv lingvistikaning shakllanishi.
102. F. de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" asari haqida ma'lumot bering.
103. Kopengagen tilshunoslik maktabi.
104. Me'yoriy holatlardan chekinish, uzus va nutq faoliyati (akti)ning absolyutlashtirilishi.
105. Neolingvistika haqida ma'lumot bering.
106. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili.
107. Amerika psixolingvistik maktabi haqida ma'lumot bering.
108. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi.
109. Transformatsion modelning tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solishdagi ahamiyati.
110. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar.
111. Matnni qabul qilish (matnni tushunish) jarayonini izohlab bering.
112. Matn persepsiyasi deganda nima tushuniladi?
113. Xabar-1ning xabar-2 ga mos kelmasligi deganda nima tushuniladi.
114. Matnning psixolingvistik tahlilida individ til va tafakkur faoliyatining o'rni.
115. Bilingvizm va uning turlari.
116. Madaniy shok, lingvistik shok tushunchalarini izohlang.
117. Pragmatik intensiya va nutqiy akt turlari.
118. Pragmatik to'siq muammosini misollar bilan tushuntiring.
119. Matnning denotativ strukturasi elementlari (propozitsiya, referensiya, relevantlik va inferensiya).
120. Matnning implikatura birliklari.
121. Pragmatik presuppozitsiya va tagma'no. misollar bilan tushuntiring.
122. Deyksisning pragmatik mohiyati va o'rganilishi. Deyksisni ifodalovchi til birliklari.
123. Konnotatsiyani hosil qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik vositalar.
124. Lingvistikaning formal va aksiomatik modellarini tuzish haqida ma'lumot bering.
125. Tilshunoslikda modellashtirish metodidan foydalanish.
126. O'zbek tili grammatikasining aksiomatik modelini yaratish va rivojlantirish yo'llari.

127. O‘zbek tili grammatikasidagi teorema, simvol va formulalar.
128. AQSh, Yaponiya, Koreya, Xitoy kompyuter lingvistikasi.
129. Turkologiya va o‘zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
130. Avtomatik tahrir dasturlarini yaratish tamoyillari.
131. Matn tahriri bosqichlari: grafematik tahrir, morfologik tahrir, sintaktik tahrir bosqichi.
132. Boris tizimi haqida ma’lumot bering.
133. Gipertekst texnologiyasi haqida ma’lumot bering.
134. Konkordanslar. Tezaurus lug‘atlar.
135. Ma’lumotlar bazasini yaratish tamoyillari haqida ma’lumot bering.
136. O‘zbek kompyuter lingvistikasini rivojlantirishning asosiy tamoyillari.
137. Tilning ijtimoiy vazifalari nimadan iborat?
138. Chog‘ishtirma tilshunoslik haqida ma’lumot bering.
139. Psixolingvistika yo‘nalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma'lumot bering.
140. Mashina tarjimasini va unga oid tadqiqotlar haqida ma’lumot bering.
141. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o‘zaro munosabatini tushuntiring.
142. Lingvistik tipologiya nima?
143. Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma’lumot bering.
144. So‘zning milliy-madaniy xususiyatlari tadqiqi tilshunoslik nazariyasida qanday ahamiyatga ega?
145. Til birliklarining o‘zaro bog‘lanishida qoida va istisno holatlarni izohlang.
146. Qadimgi hind tilshunosligining yuzaga kelishi.
147. Pragmalingvistika yo‘nalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma'lumot bering.
148. Xorijiy tildagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilish algoritmi.
149. Lisoniy paradigmani tushuntiring.
150. Panini grammatikasining tilshunoslikka oid qarashlarning shakllanishidagi ahamiyati.
151. Neyrolingvistika yo‘nalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma'lumot bering.
152. Matnni tahrirlovchi dasturlar haqida ma'lumot bering.
153. Til birliklari iyerarxiyasini tushuntiring.
154. Qadimgi yunon tilshunosligi haqida ma'lumot bering.
155. Lingvokulturologiya yo‘nalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma'lumot bering.
156. Kompyuter leksikografiyasi haqida ma'lumot bering.
157. Tilning rivojlanishi va o‘zgarishi qanday omillar ta'sirida kechadi?

158. Tilshunoslik tarixidagi analogistlar va anomalistlarning til hodisalariga yondashuvi.
159. Kognitiv tilshunoslik yoʻnalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma'lumot bering.
160. Informatsion qidiruv tizimlari va algoritmi haqida ma'lumot bering.
161. Qiyosiy-tarixiy yondashuvning tilshunoslikning fan sifatida shakllanishidagi oʻrni.
162. Ellinizm davri til maktabi ta'limoti.
163. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanishi haqida ma'lumot bering.
164. Korpus tilshunosligi nimani oʻrganadi?
165. Tillarning geneologik tasnifi.
166. Qadimgi Xitoy tilshunosligi haqida ma'lumot bering.
167. Amaliy tilshunoslik yoʻnalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma'lumot bering.
168. Til korpuslari haqida ma'lumot bering.
169. Tillarning tipologik tasnifi.
170. Oʻrta asrlarda arab tilshunosligining rivojlanishi haqida ma'lumot bering.
171. Xomskiy-Miller psixolingvistikasining tilga yondashuvi haqida gapiring.
172. Kompyuter lingvistikasi sohasida oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida gapiring.
173. Turkiy tillar oilasi haqida batafsil ma'lumot bering.
174. "Devon-u lugʻotit turk"ning qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi oʻrni.
175. Osgud psixolingvistikasining tilga yondashuvi haqida gapiring.
176. Til oʻrganish jarayonini avtomatlashtirish.
177. Agglutinatив tillarning oʻziga xosligi nimadan iborat?
178. "Muhokamat ul-lugʻatayn" asarining tilshunoslik tarixidagi ahamiyati.
179. Bola tomonidan til oʻzlashtirilishiga oid tadqiqotlar tilshunoslikka qanday hissa qoʻshadi?
180. Lingvokulturologiya sohasi boʻyicha oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida ma'lumot bering.
181. Flektiv tillarning oʻziga xosligi nimadan iborat?
182. "Pol-Royal" grammatikasining tilshunoslik tarixidagi ahamiyati.
183. Bola tomonidan til oʻzlashtirilishiga oid tadqiqotlar tilshunoslikka qanday hissa qoʻshadi?
184. Psixolingvistika yoʻnalishida oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida ma'lumot berin.
185. Yozuv turlari haqida ma'lumot bering.
186. V. fon Gumboldt qarashlarining tilshunoslik tarixidagi oʻrni.

187. Matn persepsiyasi jarayoni tavsiflang va bu masalaning o'rganilishi haqida ma'lumot bering.
188. Til siyosatining milliy til taraqqiyotidagi ahamiyati.
189. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi haqida gapiring.
190. Sotisingvistika yo'nalishi, uning obyekti va metodlari haqida ma'lumot bering.
191. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
192. Alifbo va imlo masalasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
193. Til va yozuv munosabatini tushuntiring.
194. Struktur tilshunoslik haqida ma'lumot bering, uning tilshunoslik nazariyasida tutgan o'rniga baho bering.
195. Kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlarning tilshunoslik nazariyasidagi ahamiyati haqida gapiring.
196. Nutqning hosil bo'lish jarayonining psixolingvistikadagi tavsifi.
197. Til va jamiyat munosabati.
198. Tillarning morfologik tasnifi.
199. O'zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
200. Tilshunoslikda modellashtirish metodidan foydalanish.
201. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishi.
202. Flektik tillar va ularning xususiyatlari.
203. Kompyuter lingvistikasi fanining yo'nalishlari.
204. An'anaviy lingvistikaning kompyuter lingvistikasidan farqlari.
205. Til sathlari.
206. Diaxroniya va sinxroniya.
207. Tilshunoslikda matematik metodlarni qo'llash.
208. Kompyuter leksikografiyasi.
209. Til - ramzlar tizimi.
210. Agglyutinativ tillar va ularning xususiyatlari.
211. Kompyuter lingvistikasi fanining shakllanishi.
212. Tarjimon dasturlar.
213. Til va nutq munosabati.
214. F.de Sossyur ta'limoti.
215. Lingvokulturologiya amaliy tilshunoslik sohasi sifatida.
216. Kompyuter lingvistikasi va psixolingvistika.
217. Til taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillarning o'rni.
218. Strukturalizm maktablari.
219. Tilning informativ funksiyasi.
220. Kompyuter lingvistikasi va sotsiolingvistika.
221. Tilning ijtimoiy vazifalari.
222. Qadimgi hind tilshunosligi.
223. Kompyuter lingvistikasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni.
224. Psixolingvistika nutqiy faoliyat haqidagi fan.
225. Til va tafakkur munosabati.

226. Qadimgi yunon tilshunosligi
227. Yevropadagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
228. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili.
229. Til – tafakkur – nutq munosabati.
230. Qadimgi Rim tilshunosligi.
231. AQSh, Yaponiya, Koreya, Xitoy kompyuter lingvistikasi.
232. Psixolingvistikaning tushunchaviy-terminologik apparati.
233. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi.
234. Qadimgi Xitoy tilshunosligi.
235. Rossiyada kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
236. Psixolingvistikada nutqiy faoliyat talqini.
237. Dunyo tillari tavsifi va tillar tasnifi.
- 238.** O'rta asrlar tilshunosligi.
239. Turkologiya va o'zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
240. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.
241. Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli.
242. Kompyuter lingvistikasining asosiy yo'nalishlari.
243. O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanishi.
244. Amerika psixolingvistik maktabi: bixeviorizm, neobixeviorizm
245. Tilning jamiyatdagi ko'rinishlari.
246. Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi.
247. Avtomatik tarjima yo'nalishi tarixi.
248. Transformatsion-generativ grammatika maktablari.
249. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati.
250. Lingvokulturologiya – antroposentrik yo'nalish sifatida.
251. Avtomatik tarjima yo'nalishining zamonaviy holati va istiqboli.
252. Nutq ontogenezi. Ontolingvistika.
253. Til va nutqiy faoliyat.
254. Strukturalizm maktablari.
255. Kompyuter analizi va tarjima qilish algoritmi (ruscha-o'zbekcha, inglizcha-o'zbekcha).
256. Nutqiy faoliyat va uning turlari.
257. Til taraqqiyotidagi sinxronik va diaxronik o'zgarishlar.
258. Struktur tilshunoslik asoschilari va namoyandalari.
259. Til o'rgatish jarayonini avtomatlashtirish
260. Nutq idroki (matnni tushunish).
261. Tillarning geneologik tasnifi.
262. Praga lingvistik maktabi.
263. Kompyuter leksikografiyasi.
264. Matnni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish.
265. Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi.

266. XXI asr dunyo tilshunosligi.
267. Avtomatik tahrir yo‘nalishining vujudga kelishi va uning dunyo tilshunosligidagi rivoji.
268. Til va madaniyat munosabati.
269. Agglyutinatív, flektiv tillar.
270. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari.
271. Matn tahriri bosqichlari: grafematik tahrir, morfologik tahrir, sintaktik tahrir bosqichi.
272. Bilingvizm va uning turlari.
273. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzga kelishi.
274. Qadimgi yunon tilshunosligida analogistlar va anomalistlar qarashlari.
275. Analiz va sintez dasturlari.
276. Korpuslar. Milliy korpus.
277. Til oilalari. Til guruhlari.
278. Amaliy tilshunoslik muammolari.
279. Informatsion qidiruv tizimlari.
280. Lingvistik tahlil metodlari.